

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10844861>

O'ZBEK TILIDA INSON TASHQI KO'RINISHIGA XOS SIFAT LEKSEMALARING O'RGANILISHIGA DOIR

Altibayeva Malika Kuvandikovna
Alfraganus universiteti 2-kurs magistri,
lingvistika yo'nalishi

ANNOTATSIYA

O'zbek tili sifat kategoriyasining ilmiy tahliliga bag'ishlangan mazkur maqolada tashqi ko'rinishiga xos sifatning umumiy xarakteristikasi, uning semantik turlari, strukturasi, darajalari ilmiy asosda o'rganiladi. Sifatinig o'ziga xos maxsus morfologik belgisining yo'qligi, sifat yasovchi affikslarning nihoyatda turli-tumanligi ba'zan sifatlarni aniqlashda ma'lum qiyinchilik tug'diradi. Ayrim so'zlar tashqi ko'rinishidan otga ham, sifatga ham, ravishga ham juda o'xshash bo'ladi. Bunday paytlarda ko'pincha u so'zni otlar yoniga qo'yib turib sifatligi aniqlanadi. Aynan, mazkur maqola inson tashqi ko'rinishiga xos sifat leksemalarning tavsiflanishi, yasalishi, inventari, leksik-semantik tasniflari, boshqa so'zlar bilan bog'lanishda semantik-sintaktik, nominativ so'z birikmalari tarkibidagi funksiyalari, muloqot jarayonidagi pragmatik xususiyatlari ilmiy jihatdan tadqiq qilinishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: leksik-semantik, pragmatika, kognitiv, ekspressiv-emotsional, stilistik bo'yoq dorlik, ot kategoriyalari, sifatdoshlik belgisi.

ОБ ИЗУЧЕНИИ СПЕЦИФИЧЕСКИХ ЛЕКСЕМ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ОБЛИГАЦИИ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье, посвященной научному анализу качественной категории узбекского языка, на научной основе изучаются общие характеристики обликово-специфического качества, его семантические типы, структура и уровни. Отсутствие специального морфологического признака качества, крайнее разнообразие качествебобразующих аффиксов иногда вызывают определенные трудности при определении качества. Некоторые слова очень похожи на существительные, прилагательные и наречия. В таких случаях качество определяется путем постановки слова рядом с существительным. В частности, данная статья представляет собой научное исследование описания, формирования, инвентаризации, лексико-семантических классификаций прилагательных лексем, характерных для внешности человека, семантико-синтаксических функций в связи с другими словами, номинативных словосочетаний, pragматических особенностей в процессе общения. нацелен на то, чтобы быть сделанным.

Ключевые слова: лексико-семантическая, pragматика, когнитивная, экспрессивно-эмоциональная, стилистическая окраска, именные категории, адъективный признак.

IN THE UZBEKI LANGUAGE, THE LEXEMAS SPECIFIC TO PERSONAL APPEARANCE ARE SUBJECT TO LEARNING

ABSTRACT

In this article, dedicated to the scientific analysis of the adjective category of the Uzbek language, the general characteristics of the appearance-specific adjective, its semantic types, structure, and levels are studied on a scientific basis. The lack of a special morphological sign of quality, the extreme diversity of quality-forming affixes sometimes cause certain difficulties in determining quality. Some words look very similar to nouns, adjectives, and adverbs. In such cases, quality is determined by putting the word next to

nouns. Specifically, this article is a scientific study of the description, creation, inventory, lexical-semantic classifications of adjective lexemes characteristic of human appearance, semantic-syntactic functions in connection with other words, nominative word combinations, pragmatic features in the process of communication. aimed at being done.

Key words: lexical-semantic, pragmatics, cognitive, expressive-emotional, stylistic coloring, noun categories, adjective sign.

Kirish.

Til inson va borliq o‘rtasidagi ko‘prik, inson olamni idrok etishidagi eng muhim vosi ta sifatida xarakterlanadi. O‘zbek tilshunosligida bir necha tadqiqot ishlari olib borilishiga qaramasdan, filologik bilimning ushbu sohasida hal qilinmagan muammolar yetarli.

O‘zbek tilshunosligida belgi bildiruvchi so‘zlarning muloqotdagi o‘rni, qardosh tillardagi belgi xususiyat leksemalariga munosabati, qardosh bo‘limgan tillar leksemalarini chog‘ishtirishga bag‘ishlangan tadqiqotlar yuzaga kelmoqda. Belgi bildiruvchi tushunchalar tilning shakllanish jarayoni bilan bog‘liq. Inson olam manzarasini tilida ifoda etar ekan, dastavval, narsa buyumlarning belgilariga – tashqi ko‘rinishi, rangi, agregat holati, shakliga e’tibor qaratgan.

O‘zbek tili morfologiyasida, boshqa so‘z turkumlari qatori sifat ham katta o‘rinni egallaydi va o‘zining leksik-grammatik va semantik xususiyatlariga ko‘ra mustaqil so‘z turkumi sifatida ajratilgan. So‘z turkumlari tizimida o‘zining sermahsul va qo‘llanilish doirasi bilan ajralib turadigan sifat so‘z turkumining atash ma’nosи predmet, voqeа-hodisa, holat va qisman ish-harakatning belgisini bildirishdir. Belgingin o‘zi bir necha xil bo‘ladi. Masalan, xarakter-xususiyat, shakl-ko‘rinish, holat, rang-tus, mazata’m, hid, o‘rin va payt kabi belgilardir. Belgi ifodasi nafaqat sifatlarga, balki boshqa so‘z turkumlariga ham xosdir. Masalan, ot ham matnda sifat kabi belgi ifodalashi mumkin: farishta qiz, arslon yigit, burgut ko‘zli va hokazo. Ayrim

sifat xarakteridagi olmoshlar ham sifat kabi belgi ifodalsh imkoniga ega: hamma o‘quvchi, barcha xalq, hech bir inson kabi. Ravish belgi bildirishiga ko‘ra sifat bilan mushtaraklik hosil qiladi, ya’ni ravish ham sifatlardek predmet belgisini ifodalab keladi: mardona jang, do‘stona uchrashuv, beto‘xtov harakat va hokazo.

Sifat so‘z turkumining o‘ziga xos lingvistik xususiyatlaridan biri uning polesemantik xususiyatidir. Polesemantika bu –formal tilshunoslikda bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zni farqlaganligi kabi nazariy leksikologiyada bir sememali va ko‘p sememali leksema farqlanadi. Nutqda qo‘llangan so‘z har doim bir ma’noli. Chunki, so‘z leksemaning bir martalik ko‘rinishi bo‘lib, u leksemaga zid ravishda betakrorlik tabiatiga ega. Nutqimizni boyitib turgan leksemalar tarkibida ma’lum narsa asosida shakllangan sifatlar ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Ayniqsa, buni tashqi ko‘rinish, rang-tus, maza-ta’m bildiruvchi sifatlar misolida ko‘rishimiz mumkin. (Masalan: zahar, asal, shakar, simobi, yoqut, qo‘ng‘ir va b.)

So‘z turkumlari tizimida o‘zining sermahsul va qo‘llanilishi bilan ajralib turadigan sifat so‘z turkumi predmet, voqeа-hodisa, holat va qisman ish-harakatning belgisini bildirishi bilan asoslidir [2; 43 b.].

Turkiyshunoslikda sifat so‘z turkumiga oid so‘zlarning o‘rganilish tarixi, sifatlarning belgi xususiyatlari, ularning turli tashbehtar va badiiy asarlarda belgi bildiruvchi so‘zlar tasvirlovchi vosita sifatida e’tirof etilishi tadqiq qilingan. O‘zbek tilida sifat leksik-grammatik xususiyatlariga ko‘ra mustaqil so‘z turkumi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Sifat leksemalarni yoritishda funksional-semantic xususiyatlar so‘ngi yillarda dolzarblashmoqda. Sifatlarni turli aspektlarda tasniflash muammolari hamon dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. **Har qanday pragmatik ma’noda madaniy sema aks etadi. Leksik ma’no sememadir, semema esa semalardan iborat bo‘ladi. Semalar tarkibida tashqi muhit bilan bog‘liq, pragmatik ma’no orqali ifodalanuvchi madaniy semalar bo‘ladi. Leksema semantikasidagi semalar tahliliga asoslangan**

holda badiiy matn misolida o‘zbek va rus tillaridagi belgi bildiruvchi leksemalarning lingo-kulturologik xususiyatlari yoritildi.

USUL-METOD

Maqolani yoritishda chog‘ishtirma, analiz, sintez, tavsifiy, statistik va komponent tahlil usullaridan foydalilanilgan. Turli tillardagi belgi bildiruvchi leksemalar semantikasida olam manzarasining universal tasviri bilan bir qatorda milliy-madaniy xususiyatlar bilan belgilanuvchi mental ifodasi ham namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tilida sifat kategoriyasiga xos so‘zlar biror narsa-predmet, voqe-a-hodisa va holatning belgisi (rang-tusi, hajmi, shakli, xarakteri, vaz ni, qiyofasi, xulq-atvori) ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, inson tashqi ko‘rinishiga xos sifat leksemalar shular jumlasidandir: *chiroyli, husnkor, istarasi issiq, rangi sovuq, sersoqol, ko’sa, ko’zi o’ynagan, so’yloq tishli kishi* va h.k.

Sersoqol yuzi soqol bilan qoplangan, qulog‘idan iyagigacha chuqur chandiqdan iborat edi.

Mard bo‘lsa, so’yloq tishlining o‘zi gaplashsin! Onasini elchi qilishga balo bormi? (O‘. Hoshimov).

MUHOKAMA

Mazkur maqolaning asosiy o‘rganish obyekti bo‘lgan mazkur o‘zbek tilidagi inson tashqi ko‘rinishiga xos sifat leksemalarning tavsiflanishi, yasalishi, inventari, leksik-semantik tasniflari, boshqa so‘zlar bilan bog‘lanishda semantik-sintaktik, nominativ so‘z birikmalari tarkibidagi funksiyalari, muloqot jarayonidagi pragmatik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq qilish zarurati kuchaymoqda.

O‘zbek tili morfologiyasida boshqa so‘z turkumlari qatori sifat ham katta o‘rin egallaydi. Sifat o‘zbek tilida o‘zining leksik-grammatik xususiyatlariga ko‘ra mustaqil so‘z turkumi sifatida ajratilgan.

Tilda sifatlarning otlashib kelishi o‘ziga xos grammatik qoidani tashkil qiladi, ba’zi bir so‘zning ham ot, ham sifat, ham ravish vazifalarida qo‘llana olish xususiyati ham e’tirof etiladi.

V. N. Teliya ko‘sса, qари, нурониј, касал, бетоб ва шу каби лексемаларни сифат деб hisoblash mumkin, chunki u predmet belgisini bildiradi. Sintaktik jihatdan esa xuddi shu sifat tarzida ham, ot tarzida ham qo‘llana olishi mumkinligi bilan izohlana oladi [3; 101 b.].

Bir qator turkologlar o‘zlarining tadqiqot kuzatuv natijalari asosida turkiy tillar sistemasida sifatlarning alohida so‘z turkumi ekanligiga shubha bilan qaraganliklari haqida fikr mavjud. Masalan, nemis olimi V. Glushak sifat va ot kategoriyalarini tashqi formalariga asoslanib, biri o‘rniga qo‘yib tekshirgan. Shuningdek, nemis turkolog olimi S.Hartlmayer ham ot va sifatni bir-biridan ajratmagan [5; 201, 218 b.].

Bizning fikrmizcha ot bilan sifat o‘rtasida grammatik jihatdan dastlab hech qanday farq sezilmaydi. Har ikkala grammatik kategoriya ham ot turkumidan kelib chiqadi. Aytish mumkinki, biri predmet nomini anglatsa, ikkinchisi belgi nomini anglatishi bilan izohlanadi.

Ikki otning yonma-yon kelib uchinchi otni aniqlashi ham yuqoridagi fikrlarni dalillasa, ajab emas.

Masalan, **xum kalla (kalla xum) bola, anor yuz qiz, bez bet odam, sepkil yuzli ayol** va sh. k. Bunday hodisalarda endi ikki ot qo‘shilishidan bir ma’no anglatuvchi qo‘shma sifat yasaladi.

Otlashgan sifatlar ko‘chma, emotsiunal-ekspressiv ma’nolarida qo‘llanilib, aniqlovchi vazifasini o‘taydi. M., Anvar birinchi qarashdayoq **Alpqomat**, ko‘zga **do‘ndiq** va **ko‘rkam ko‘rinar** edi. **Qora surmalik ko‘zi** Ra’noda ekan, o‘ziga yugurib kelguchi Mansurga yo‘l ustida cho‘nqayib quchog‘ini ochti.

Ba’zan ish-harakat belgi-xususiyatini aniqlash uchun qo‘llanib, ravishlik vazifasini ham bajaradi: Anorbibi **mehnat bilan yashab**, yetti-sakkizni tug‘ib, **yoshi ham**

qirqlarga borib, tusiga ajin kirib, keksaymasa ham qarimsiq bo‘lib qolg‘an, shuning uchun ham birartaga tegib olish to‘g‘risida o‘ylash ham behuda.

Tilning tahlili va elementlarini o‘rganishda uning asosini tashkil qiluvchi tomonlardan biri leksikani, ikkinchi tomondan grammatik qurilish – morfologiya va sintaksisni doimo bir-biriga bog‘lab tadqiq qilish muhim hisoblanadi. Tilning deyarli barcha hodisalariga ham leksik, ham grammatik nuqtai nazardan yondashish joiz, chunki leksikada so‘zning ma’nolar uzviy aniqlansa, har bir kategoriyada leksemalarning grammatik mohiyati, mantiqiy jihatni kuzatiladi.

Sifat kategoriyasini tahlil qilishda so‘zlarning birgina tomonini emas, balki leksik- semantik va grammatik xususiyatlarini nazardan qochirmaslik lozim.

Inson tashqi ko‘rinishiga xos sifatlarning ma’noviy guruhlari insonning turli belgi- xususiyatlari ya’ni tashqi ko‘rinish, intellektual, ijtimoiy belgilarini ifodalashda faol qo‘llanadi [4; 71 b.]. Tashqi ko‘rinishga xos sifat leksemalar, odatda inson tashqi tuzilishi bilan bog‘liq belgilarni bildirib keladi. Tashqi ko‘rinish sifatlaridan bir turkumi inson, bir turkumi predmet va hayvonlarning tashqi ko‘rinishini ifodalashda umumuiy qo‘llanadi, bir turkumi esa faqat inson tashqi ko‘rinishi yoki predmet xossasini ifodalashga xos bo‘lib qolgan.

Bunday sifatlar ijobiy va salbiy yoki neytral holatda bo‘lishi mumkin [2; 91]:

Insonning tashqi ko‘rinishiga xos sifatlarni quyidagi leksik-semantik guruhlarga bo‘lib o‘rganish yanada uning ma’noviy xususiyatlarini oydinlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Insonning tana qismini sifatlash: **soqolli** kishi, **junli** oyoqlar, **barvasta** kishi, **yaralangan** yuz, **go‘shtli** bashara va h.k.: Maxdum **bo‘ychan, olago‘sht, siyrak mo‘y, oq tan, istarasi issig‘** domla edi.

2. Insonning yuzini ifodalovchi sifatlar: yumaloq, cho‘zinchoq, seckilli, silliq yuz, kulcha yuz, oyparcha, go‘shtdor bashara, sersoqol, ko‘sса, va h.k.: **Yuzi cho‘ziq ham emas, oy kulcha** ham deb bo‘lmas, kishiga kulib qarag‘anda **qizil olma ostlarida**

ikkita zamma ravishlik shakl hosil bo‘lar, go‘yo bizga chin ra’no guli ochilg‘an holatda ko‘rinar edi.

3. Inson qiyofasini ifodalovchi sifatlar - shaxsni tavsiflovchi sifatlar ham uning figurasini tasvirlashda yordam beradi: nozik, o‘rtacha, to‘liq, semiz, do‘mboq, to‘la, to‘liq, yumaloq yelkali, bukilgan, keng yelkali, alp qomatli, tor yelkali va sh. k.: Uning qora zulfi par yostiqning turli tomoniga tartibsiz suratda to‘zg‘ib, tiniq yuzi, quyuq jingila kiprik ostidagi tim qora ko‘zлari bir nuqtaga tikilgan-da, qop-qora, o‘tib ketgan nafis, qiyiq qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho‘chigan kabi... to‘lgan oydek g‘uborsiz oq yuzi bir oz qizillikka aylangan-da, kimdandir uyalgan kabi.... (A.Qodiriy).

Shaxsni tavsiflovchi sifatlar ham uning figurasini tasvirlashda yordam beradi. Shaxsning figurasini shakllanishi uning jinsiga bog‘liq emas, balki o‘sish nisbati, skelet tuzilishi va teri osti yog‘ining cho‘kishi va shu k. Shuningdek, insonning o‘sishi haqida gapiradigan bo‘lsak, unda u past, o‘rta, yuqori va juda yuqori bo‘lishi mumkin, fizik jihatdan esa, yuqorida ta‘kidlangan semiz, to‘liq, alpqomat, chayir va h.k. kabi leksemalar bilan sifatlanishi kuzatiladi.

4. Inson oyoq-qo‘llarini tasvirlovchi sifatlar: ingichka barmoq, sergo‘sht bilak, nozik barmoq, uzun qo‘l, va b.: Keskir laqabli bu yigit **sergo‘sht bilakli, ko‘rsatkich barmog‘i kertilgan, kelishgan, do‘ndiq** bola edi (O‘. Abduraxmimov).

Sifat leksemalar juda ko‘p frazeologik, idiomatik iboralar, maqol, matallar tarkibida qo‘llanib, ko‘chma va qo‘srimcha ma’nolar kasb etadi hamda pragmatik hodisani yuzaga keltiradi. Masalan, “...bir qoshiq suv bilan yutib yuborgudek” – ushbu frazema lug‘atlarda qayd etilgan bo‘lib, “beqiyos go‘zal, nihoyatda dirlrabo” ayollarga nisbatan ijobiy ma’noda qo‘llaniladi [6; 87 b.].

M., Kipriklari ostida nafis bir surma doirasi bor edi. Qoshi tutash kabi ko‘rinsa ham ko‘ndalang yotqan ikki qilich orasini nafis bir quyulib ko‘tarilishi ajratib turar edi, **yuz ko‘ziga rassomning san’ati yetmas darajada, bir qoshiq suv bo‘lsa asal kabi qo‘shib ichilsa**

Aytish o‘rinliki, qizil ko‘zli qarg‘a (ovqatga nisbatan nafsiyi jilovlay olmaydigan); oq bilak qiz (olifta, tannoz); qora qo‘l (qo‘li nimaga tegsa sindiradigan, buzadigan); qo‘li uzun (puldor shaxs); rangi sovuq (xarakteri og‘ir, urishqoq); rangi sarg‘aygan (betob); yuzi so‘lg‘in (ikki ma’noda bo‘lishi mumkin: betob va hafsalasi pir bo‘lgan); istarasi issiq (kelishgan, rahmdil); tepe sochi tikka bo‘lmoq (jahli chiqmoq); ochiq yuz bilan (yaxshi kayfiyat bilan, xushtabiatlik bilan), chehrasi ochiq (xushtabiat, kayfiyati yaxshi, insonning fe’l-atvoriga nisbatan ishlataladi); dil tortar (yoqimli); tog‘ni talqon qiladigan frazemasi (zabardast, pahlavon); og‘zidan bol tomadi (shirinsuhan); qattiq qo‘l (talabchan); ko‘zi ko‘r (zukkoklik bilan fahmlay olmaydigan); ko‘zi ochilmoq [1; 61 b.] (kech anglamoq) inson tashqi ko‘rinishiga xos sifat leksemalar turli lisoniy shakllar hosil qilishi natijasida muloqot jarayonida inson ongida turfa stilistik, pragmatik va kognitiv modellar yasalishiga zamin yaratadi.

Shuningdek M.Sodiqova sifatlarning belgi darajasining ortiqligini ko‘rsatishda to’rt: morfologik (affiksatsiya), leksik, leksik-semantik hamda fonetik usullarga bo‘lib o’rganish ham muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi

Morfologik usulda belgining ortiqlik darajasini ifodalashda qo’llanuvchi intensiv forma biror predmet belgi-xususiyatini boshqa predmetdagi shunday belgi-xususiyat bilan qiyos etilmagan holda ortiqligini ifodalashga xizmat qiladi: chiroylı (chip-chiroylı); oq (oppoq); qora (qop-qora):

Kelining Nozimaxon esa u darajada xunukmas, chip-chiroylı qiz ekan (Ch. Aytmamatov).

Leksik usul bir necha turlarga bo’linadi. Ma’noni kuchaytirish uchun sifat leksemalar oldidan maxsus kuchaytiruvchi so’zlar qo’llaniladi: juda, g’oyat, nihoyatda, biram, benihoya, cheksiz, beqiyos, behad, naqadar: juda aqli, g’oyat nafosatli, nihoyatda razil, biram mulozamatli, benihoya muloyim, naqadar tuban kabilar.

U sersavlat, nihoyatda istarali, biram xushyor va kuzatuvchan edi (O’. Umarbekov).

Leksik-semantik usulda ma’noni kuchaytirish uchun belgi bildiradigan so’zlar qo’llaniladi. Ba’zan bu so’zlar takrorlangan, qo’shma, affiks olgan holda keladi: ko‘likkina odam – ko‘rkam odam, kalta qiz – pakana qiz, bo’sh odam – latta odam, devdek yigit – alpomish yigit va h.k.

Siz – Gulnorni yomonlab gapirmang. Siz uchun yomon bo’lsalar, men uchun farishta-malaklar (O’. Abdurahmonov).

Fonetik usul bilan sattaang, chiroyyli, maftunkoor, seemiz, ozzg’in (cho‘pi), va shu kabilar.

Men seni bu qadar sataangligingni bilganimda, mol-mulkimni ishonmagan bo’lardim-a! (O’. Umarbekov).

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tili grammatikasida sifat gapning egasi, ega guruhiga bog‘lagan holda o‘rganiladi. Inson tashqi ko‘rinishiga xos sifat leksemalar nafaqat xususiyat, balki xossani ham aniqlaydi. Biror bir aniqlanmishning xossa-xususiyati, o‘ziga xosligini belgilash uchun sifat leksemalarga murojaat qilinadi. Har qanday obyekt yoki nom ko‘rsatkichi “o‘ziga xosligi” yoki “ko‘p-qirraligi”ni sifatlarsiz belgilay olmasligi bilan ahamiyatlidir. **O‘zbek tilshunosligida belgi bildiruvchi so’zlar sifat va uning leksikmorfologik xususiyatlarini o‘rganish asosida tahlil qilingan, xarakterxususiyat bildiruvchi sifat leksemalarning matn bilan bog‘liq holdagi konnotatsiyalari o‘rganilgan.**

Inson tashqi ko‘rinishiga xos sifat leksemalar darajalarga ega bo’lishi uning asosiy grammatik xususiyatlaridan biridir. Har bir narsa-predmet, holat, hodisa hamda ish-harakatning turli-tuman aniq, mavhum belgilari bo’ladi. Bunday belgililar normal yoki shu normallikka nisbatan semiz-ozg’ib, chiroyli-xunuk, baland yoki past bo’lishi mumkin. Belgining bunday xususiyatlari sifatning daraja formalari yordamida ham ifodalanishi tahlil qilindi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *Abdujaaborova F. “Qutadg‘u bilig”dagi shaxs belgi-xususiyatini anglatuvchi leksika. Filol. fan. nom. diss. avtoref.-Toshkent, 2011.*
2. *Pardayev 3. O‘zbek tilida sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari. Samarqand: 2007. – 132 b.*
3. *Телия В.Н. Русская фразеология. Семантические, pragmaticальные и лингвокультурные аспекты. – М, Языки русской культуры, 1996. – С. 284.*
4. *Tojimatov H. Sifat sememasining reallashuvida kontekst. filol. fan. nom. diss. - Toshkent, 2008.*
5. *Hartlmaier, Sarah Adjektive: Grammatik, Pragmatik,-Berlin, Boston, 2018. S. 201-219.*
6. *Glushak, Vasily Kognitive Grundlagen der Adjektive im Russischen, Deutschen und Litauischen [VerfasserIn] – München, 2002/2017. - S. 123-134.*